

BIR BANDLI IKKI GUL*Boltayeva Lobar**Alisher Navoiy nomidagi**ToshDO‘TAU ning 2-kurs magistranti***Annotatsiya**

Bu maqolada xalqimizning ajoyib ijodkori G‘afur G‘ulom ijodiga mansub, o‘ziga xos ramziylikka asoslangan hikoyalaridan biri “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” asari va ko‘plab muxlislarga ega bo‘lgan ajoyib ijodkorlar aka-uka Grimmlarning “Cho‘qintirgan ota — Ajal” asari asosida vujudga kelgan timsollarni tahliliy yoritib, o‘xshash jihatlarni keltirib o‘tdik. Asarlardagi epizodlar xarakterlarining uyg‘unligi bo‘yicha fikrlar keltirib o‘tdik.

DOUBLE FLOWER ON A STEM**Annotation**

In this article, We have analyzed the symbols of the great writer of our people Ghafur Ghulam, one of the a nice stories of which is based on symbolism " Immortal Effendi" and brothers Grimm "The Godfather death ", which is famous for its wonderful works. We have commented on the coherence of the characters in the works.

ДВОЙНОЙ ЦВЕТОК НА ОДНОМ СТЕБЛЕ**Аннотация**

В этой статье мы проанализировали символы великого писателя нашего народа Гафура Гулама, одна из замечательных историй которого основана на символике "Бессмертного Эфенди" и "Крестного отца смерти" братьев Гримм, который славится своими замечательными произведениями. Мы прокомментировали согласованность персонажей в произведениях

G‘afur G‘ulom bir nechta yumoristik ruhdagi asarlar yaratgan. Ijodkorning “Afandi o‘lmaydigan bo‘ldi” hikoyasi falsafiy- yumoristik usulda qalamga olingan. Asar 1965 -yilda yozilgan. Asarda voqealar xalq og‘zaki ijodi qahramonlaridan biri bo‘lgan Nasriddin Afandi obraziga bog‘langan. Asar badiiy –estetik jihatdan kitobxon e‘tiborini torta oladi. Qahramonlar oddiy, tabiiy usulda tasvirlangan.

“G‘afur G‘ulomning kulgi hikoyalarini esga olaylik. Ularning bir qismida o‘tmishdagi qiziq voqealar, odamlarning soddaligini, bir-biriga mehribonligini ko‘rsatuvchi voqealar, ayni chog‘da, o‘tmishdagi hayotni chulg‘ab olgan zulmat hikoya qilingan... quvnoq latifalarni o‘qiganda qanchadan-qancha zavq olamiz, huzur qilib kulamiz”. [1.10]

Asar Afandining tirikchilik vajidan shahar bozoridan qaytayotgan tasviridan boshlanadi, u yo‘lda zerikib ishlab topgan tangalarini ermak qilib uyga ketayotgan

bo'ladi, asar uch miri kumush tanga tasviri bilan yanada boyigan: "...Tanganing bir tomonida podsholik muhri, ikkinchi tomonda "Hoqon ibni Hoqon Sulton Sulfiddinxon G'oziy" deb yozilgan tamg'asi bor edi. Afandi tanganing o'ngi-tersiga istehzo bilan qarab:

—Ey, tavba, bir misqol kelar-kelmas qalay aralashgan kumush bo'lsa, ikki tomonida aji-buji xatlari bo'lsa, na san'ati, na qadr-qiymati bo'lsa, ana shu bir burda tangaga ne-ne kishilar muhtoj bo'lsa, ne-ne barno ayollar, ne-ne azamat davangirday yigitlar sakkiz no'xat og'irligidagi shu temirga ertadan qaro kechgacha ishlasa... Shu tangang bo'lmasa, obro'ying bir pul, aqlu farosating, ilming hemiri, qavmu qarindosh begona, do'stu oshno sendan uzoq, hamma eshiklar betingga yopiq, bozor-o'chardan qadaming qirqilgan, bola-chaqa och, o'zing yalang'och".

Bu tasvir orqali ijodkor pulning qanchalik insonlar ustidan hukmronligi, uning jamiyatdagi kuchi, insonlarga ta'siri, uning insonlar orasidagi hurmatini qalamga olgan. Qizig'i shundaki, pulning, mol-mulkning jamiyatdagi o'rni hozirgi kunda ham xuddi shunday holatda, ijodkor qanchalik mahoratli ekanligini shundan bilish mumkin. Ijodkor nafaqat betakror, o'z o'rniga ega shoir sifatida, balki nasriy ijodkorligi borasida ham yuksak mahoratga egaligiga tahsin aytish joiz. Hattoki, G'afur G'ulom ijodini adabiyotshunoslar, olimlarimizdan tashqari ijodkorlardan biri O'. Hoshimov ham yuqori baholaganlar.

"...nasriy asarlarini o'qigan kitobxon adibning ichakuzdi hajviyalarida, zavq bilan o'qiladigan hikoya va qissalarida alloma iste'dodining yana bir qirrasini topadi. Bularning ko'pchiligi Vaqt sinovidan o'tgan va yana uzoq yashaydigan asarlardir. Bizningcha, G'afur G'ulom aynan nasriy asarlarini sezayotganda yelkasidan bosib turgan yukdan xalos bo'lgandek tuyuladi. Qalbi buyurgancha, xohlasa kulib, xohlasa istehzo qilib, xohpasa yig'lab qalam suradi. Ularda ijodkor xalq hayotini, xalq tilining ming bir jilosini mukammal bilishi aniq ko'rinadi". [2.69]

Shuningdek, Afandi Azroil bilan bo'lgan suhbatda oson, qiynalmay pul topish uchun Azroil uni tabib bo'lishini aytadi.

"—Tabibchilikka ilm kerak, men esam g'irt savodsizman, alifni kaltak deya olmayman, qizamiq bilan chipqonni bir-birovidan ajratolmayman, taqsir,—dedi Afandi.

—Tabibchilikka ilmning hojati yo'q. Xuddi sendaqa avomlardan tabibning zo'ri chiqadi,—dedi Azroil.—Xotiningga ellikta xalta tiktirasan. Xaltalarga har xil o'tlarni quritib, uqalab solasan. Besh-olti shishada har xil rango-rang suvlar tayyorlaysan. Mahallangga borib, tushimda hazrati Luqmon og'zinga tupurib ketdi, tabib bo'ldim, deysan. Sal kunda dovrug'ing olamni bosib ketadi. Qolganiga men yordam beraman", — deb javob beradi. Shu o'rinda ham adibning insonlar o'rtasida keng tarqalib ketgan yalqovlik, dangasalik, mehnatsiz boylikka intiluvchi insonlar borligini, ular sodda xalqni aldab o'zini tabib deb atovchilarni, inson hayoti uchun muhim bo'lgan tabiblik,

doktorlik da'vosi bilan insonlar hayotini qanchalik xavfga qo'yishlari ochiq– ayon tasvirlangan.

“G'afur G'ulom meshchanlik, yalqovlik, hiyla- nayrangni suv qilib ichib yuborgan, tutruqsiz ustasi faranglarni fosh qiluvchi bu xil hikoyalarda xalq o'rtasida keng tarqalgan va xalq ijodining namunasi sifatida folklor xazinasiga aylangan xalq latifalari, rivoyatlar, hangomalardan juda unumli foydalandi, ularga sotsial mazmun bergan holda o'z ijtimoiy uslubini tobora charxlab bordi. G'afur G'ulom rivoyat va xalq latifalaridagi jonli xalq tilining boy ko'rinishlaridan foydalangan holda muayyan bir g'oyani qisqa va yorqin ifodalashga erishgan”. [3.20]

Tabib va ajal motivi aka- uka Grimm ertaklarida ham uchraydi: “The Godfather death” asarida “...I will always appear to thee. If I stand by the head of the sick man, thou mayst say with confidence that thou wilt make him well again, and if thou givest him of this herb he will recover; but if I stand by the patient's feet, he is mine, and thou must say that all remedies are in vain, and that no physician in the world could save him. But beware of using the herb against my will, or it might fare ill with thee”. [5] (“Men faqat senga ko'rinaman. Agar men bemorning bosh tarafida turgan bo'lsam, sen uni qayta yaxshilanishini ishonch bilan aytishing mumkin, agar sen unga giyohni bersang, u tuzaladi; ammo men bemorning oyoq tomonida tursam, u meniki va sen unga barcha dori-darmonlar foydasizligini, dunyodagi hech bir doktor uni saqlab qololmasligini aytishing kerak. Ammo yo meni istagimga qarshi giyohni foydalanishdan ehtiyot bo'lasan, yoki o'lim sen bilan sodir bo'ladi”).

“Afandi o'lmaydigan bo'ldi” hikoyasida ham shunday tabib va ajal kelishuvi motivi borligini ko'ramiz. Bizningcha, bu asarda Afandi g'alabasi ramziy ma'noda sovet kishilari ustidan o'z aqli bilan omon qolgan barcha ijodkorlarning tipik obrazidir.

Muhimi, xalq ijodi G'afur G'ulom nasrida beg'araz hazil-mutoyiba va qahramonlik, hayotbaxshlik, donishmandlik ruhini yanada kuchaytirgan. Adib hatto o'nlab feletonlarini Nasriddin Afandi latifalari syujeti, shakli asosiga ko'rgan va shu yo'l bilan ularni hatto satirik hikoya darajasiga ko'tarib yuborgan”. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шарафиддинов О. Истеъдод жилолари адабий портретлар. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёт . Тошкент: – 1976 .
2. Гафур Гулом замондошлари хотирасида /Тўпловчи: Олмос. — Т.: Ф. Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003 .
3. Гафур Гулом ижодининг маънавий-маърифий ахамияти. Масъул муҳаррирлар: филология фанлари докторлари Наим Каримов ва Тўра Мирзаев. ЎзР ФА Ишлар бошкармаси Тошкент: – 2003.
4. Nosirjanovna Sh. G'AFUR G'ULOM NASRIY MEROSINING JANRIY RANG-BARANGLIGI VA ICHKI RIVOJI. O'zbekistonda ilmiy – amaliy

tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 28- ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallaridan.

5. From Jacob and Wilhelm Grimm, Household Tales, trans. Margaret Hunt (London: George Bell, 1884)
6. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical & Applied Science. – Marseille, 2015. pp. 40-43
7. Matyokubova Tozagul. A mastery of affecting a student with a lyric feeling. // International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). Vol. 5 Issue 4, April - 2021, Pages: 290-292
8. Матёкубова Т. Фафур Гулом шеъриятида лирик қахрамон руҳияти тасвири // “World of Philology” Scientific Journal VOLUME 1 ISSUE 2 / December 2022. – Б.12-18
9. Matyokubova, T., & Yakubov, I. (2020). Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
10. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
11. Yakubova S. The issue of “way” in Cholpon’s poetry. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 490-492
12. Yakubov I. A. Real and artistic truth in the poem “Black sun” / Aktualnye problem tyurkologii: Rossiya i tyurko-musulmanskiy mir. Kazan . 2021. pp.211-213.
13. Yakubov, I. “Boburnoma” - a rare monument of Uzbek prose. Proceedings of the international scientific-theoretical conference on “The role of Zahiriddin Muhammad Babur in Eastern statecraft and culture”, Tashkent, 2023. pp. 174-179.
14. Yakubov, I. Artistic interpretation of the drama of moral and spiritual problems in the tragedy “Romeo and Juliet”. ISJ Theoretical & Applied Science. . 2023. 02 (118), 517-520